

VCCR (VENA KONSULLIK MUNOSABATLARI KONVENSIYASI)DAGI CONSULAR NOTIFICATION (KONSULLIKKA XABAR BERISH)NING ICHKI SUD AMALIYOTIGA INTEGRATSIYASI

Sobirjonova E'zoza Olimjon qizi

Toshkent davlat yuridik universiteti talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada Vena konsullik munosabati konvensiyasidagi consular notification va uning ichki sud amaliyotidagi integratsiyasi amaliy misollar bilan tahlil qilinadi. Mamlakatlar va davlatlarning rivojlanishi, xalqaro munosabatlarning o'zgaruvchanligi va xalqaro ko'chish harakatlarining ortishi tufayli davlatlar hududida chet el fuqarolarining soni juda ham oshmoqda. Shu sababli chet el fuqarolarining boshqa bir davlat hududida bo'lgan vaqtidagi huquqlarini himoya qilish, ularning vatani bilan aloqalari va konsullik yordami masalalari o'ta muhim va ahamiyatli huquqiy va amaliy masalaga aylandi. Vena konsullik munosabatlari konvensiyasi aynan shu va shu kabi masalalarni tartibga soladi. Bu maqola ushbu konvensiya va uning konsullikka xabar berish bilan bog'liq normalarining mazmunini ochib beradi, uning ichki sud jarayonlarida qanday integratsiyalashgani, asosiy muammolar, xalqaro sud amaliyotidagi ta'siri va ichki sud tizimlarida ushbu huquqni mustahkamlash bo'yicha tavsiyalar va takliflarni beradi.

Kalit so'zlar: Konsulliklar, integratsiya, sud, Vena konvensiyasi, Consular notification, self-executing.

Sobirjonova E'zoza Olimjon qizi

Student of Tashkent State University of Law

INTEGRATION OF CONSULAR NOTIFICATION UNDER THE VIENNA CONVENTION ON CONSULAR RELATIONS (VCCR) INTO DOMESTIC JUDICIAL PRACTICE

Abstract: This article analyzes the concept of consular notification under the Vienna Convention on Consular Relations and its integration into domestic judicial practice through practical examples. Due to the rapid development of states, the dynamic nature of international relations, and the increase in international migration, the number of foreign nationals within the territories of states has significantly grown. Therefore, the protection of the rights of foreign citizens while they are in another country, their connection with their home state, and access to consular assistance have become highly important legal and practical issues. The Vienna Convention on Consular Relations regulates these matters. This article explores the content of the Convention, particularly its provisions related to consular notification, examines how these norms are integrated into domestic judicial processes, identifies key challenges,

evaluates their impact on international judicial practice, and provides recommendations for strengthening this right within domestic legal systems.

Keywords: Consulates, integration, court, Vienna Convention, consular notification, self-executing.

*Собиржонова Эъзола Олимжон қизи
Студентка Ташкентского государственного
юридического университета*

ИНТЕГРАЦИЯ КОНСУЛЬСКОГО УВЕДОМЛЕНИЯ В РАМКАХ ВЕНСКОЙ КОНВЕНЦИИ О КОНСУЛЬСКИХ СНОШЕНИЯХ ВО ВНУТРЕНнюю СУДЕБную ПРАКТИКУ

Аннотация: В данной статье анализируется институт консульского уведомления, предусмотренный Венской конвенцией о консульских сношениях, а также его интеграция во внутреннюю судебную практику на основе практических примеров. В условиях стремительного развития государств, динамичности международных отношений и роста международной миграции значительно увеличивается число иностранных граждан на территориях государств. В связи с этим защита прав иностранных граждан в период их пребывания в другом государстве, поддержание их связи со своей страной и обеспечение консульской помощи приобретают особую правовую и практическую значимость. Венская конвенция о консульских сношениях регулирует данные вопросы. В статье раскрывается содержание данной Конвенции, в частности её норм, связанных с консульским уведомлением, рассматривается процесс их интеграции во внутренние судебные процедуры, выявляются основные проблемы, оценивается влияние на международную судебную практику, а также предлагаются рекомендации по укреплению данного права в национальных правовых системах.

Ключевые слова: консульства, интеграция, суд, Венская конвенция, консульское уведомление, самоисполняемость.

I.Kirish

Ushbu mavzu doirasidagi ushbu maqolaning asosiy maqsadi – bir necha davlatlar misolida Vena konsullik munosabatlari konvensiyasining konsullikka xabar berish huquqining ichki sud amaliyoti integratsiya qilishning muhim jihatlari, foydali tomonlari va boshqa asosiy omillarni ochib berishdir.

Ushbu maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar belgilanadi:

- a) Vena konsullik munosabatlari konvensiyasining qabul qilinishini tahlil qilish;
- b) Ushbu konvensiyaning asil mohiyati tadbiq etish;
- c) Consular notification nima ekanligini chuqur o'rganish;

d) Ushbu huquq shaxsiy huquqmi yoki davlatlararo majburiyatligini baholash;

II. Metodologiya

Tadqiqotda qiyosi tarixiy, tizimli tahlil va formal-yuridik metodlardan foydalaniladi. Mavzu doirasidagi markaziy munozaralar, bir tomondan, Vena konsullik munosabatlari konvensiyasidagi konsullikka xabar berishning ichki sud amaliyotiga integratsiyasi ahamiyati g'oyasi atrofida, ikkinchi tomondan esa, konsullikka xabar berish huquqining afvzalliklari, davlatlar tomonidan qanday qabul qilinganligi atrofida jamlangan. Bu maqola aynan shu kabi murakkab munozaralarni huquqiy tahlil qilishga qaratilgan.

III. Natijalar

Vena konsullik munosabatlari konvensiyasining qabul qilinishi

Avvalo, Konsullik huquqi atamasiga ta'rif bersak. Toshkent davlat yuridik universiteti mualliflar jamoasi tomonidan yozilgan Xalqaro ommaviy huquq darsligida Konsullik huquqiga shunday ta'rif beriladi: konsullik muassasalari va ular personalining ma'lum bir funksiyalarini, huquqiy maqomini, huquq va majburiyatlarini tartibga solishga qaratilgan xalqaro-huquqiy hujjatlar yig'indisidir.¹ Vena konsullik munosabatlari konvensiyasi konsullik huquqining manbalaridan biri hisoblanadi. Konsullik huquqining manbalari 3 ga bo'linadi. ular universal, mintaqaviy va mahalliyga bo'linadi. Kelib chiqishi jihatidan konsullik aloqalari xalqaro munosabatlardagi eng qadimiy institutlardan biridir. O'rta asrlardan oq konsullik munosabatlarini tartibga soluvchi ikki tomonlama munosabatlar tuzilgan. Biroq ko'p tomonlama xalqaro huquqiy manba hozirgi asrda ishlab chiqildi va u bugungi kunda davlatlarning konsullik munosabatlarini tartibga soluvchi eng asosiy huquqiy asosdir. Konsullik munosabatlari to'g'risidagi Vena konvensiyasi 1963-yil mart-aprel oylarida qabul qilingan.² Vena konsullik munosabatlari konvensiyasi davlatlararo munosabatlar uchun poydevor vazifasini bajargan va bajarmoqda, shuningdek, ichki qonunchilik hamda me'yoriy tartiblar bilan moslashtiriladi. Konvensiya konsullik idoralarini aniqlaydi, konsullarning imtiyozlari, funksiyalari va immunitetlarini sanab o'tadi, shuningdek, konsullik funksiyalarni bajarishni osonlashtiruvchi vositalarni taqdim etadi. Masalan, yuboruvchi davlat fuqarolariga murojaat qilish va ularga kirish imkoniyati. Konsullik munosabatlari to'g'risidagi Vena konvensiyasi yuboruvchi davlat fuqarolarini qabul qiluvchi davlat hududida himoya qilishga doir qoidalarni tasdiqlaydi. Qamoqqa olish yoki hibsga olish va shu bilan bog'liq holatlar sodir bo'lganda, qabul qiluvchi davlatning vakolatli organlari chet eldan kelgan fuqaroga konsullikka oid ma'lumot olish huquqi borligini xabar berishi va konsullik himoyasiga

¹ Xalqaro ommaviy huquq [Matn]: darslik / A.X. Saidov va boshqalar. - T.: TDYU nashriyoti, 2023. - 374 b.

² https://uz.wikipedia.org/wiki/Vena_konvensiyalari

samarali kirishni ta'minlashi darkor.³ Ya'ni advokat olish va odil sud jarayoni bo'lishi bilan bog'liq huquqlari ta'minlanishi lozim.

Konvensiyaning asl mohiyati

Konsullik munosabatlari to'g'risidagi Vena konvensiyasi davlatlar o'rtasidagi konsullik munosabatlarining deyarli barcha masalalarini va qoidalarini belgilab bergan. Masalan konvensiya: konsulliklarni tashkil qilish ya'ni ularni barcha funksiyalarini paydo qilish va konsullik muassasalarini yaratish; konsullik funksiyalari; konsulliklar va ularning xodimlarining imtiyozlari va immunitetlari kabi va boshqa bir qancha masalalarni belgilab bergan va berib kelmoqda. Konsullik munosabatlari to'g'risidagi Vena konvensiyasi BMT tarkibidagi katta guruh tomonidan ishlab chiqilgan. Ushbu konvensiya muqaddima va 5 bobdan iborat. Shu jumladan, 79 moddadan tashkil topgan. Konsullik munosabatlari to'g'risidagi Vena konvensiyasi konsullik munosabatlarini o'rnatish, amalga oshirish, konsullik funksiyalarini tugatish qoidalarini tahlil qiladi, konsullik muassasalari va ularning xodimlarining imtiyozlari va immunitetlari, shu jumladan doimiy konsullik xizmatchilari va boshqa konsullik muassasalari xodimlarining imtiyozlari va immunitetlari to'g'risidagi qoidalarni aniq nazarda tutadi, faxriy konsullik xodimlari uchun rejim o'rnatadi.⁴ Vena konsullik munosabatlari konvensiyasigacha, konsullik aloqalari odat huquqi bilan tartibga solingan va bir nechta ikki-tomonlama yoki mintaqaviy shartnomalar bilan kafolatlangan bo'lgan edi. Masalan, 1681-yilda Colbert tomonidan "Ordonnance de la Marine" qabul qilingan. XIX asrda turli davlatlar o'z konsullik xizmatini va chet el konsullarining maqomini tartibga solgan. 1911-yilda Boliviya, Kolumbiya, Ekvador, Peru va Venesuela o'rtasida birinchi mintaqaviy konvensiya 18-iyul 1911-yilda konsullik aloqalar masalasida qabul qilingan.⁵ Shuningdek, Vena konsullik munosabatlari konvensiyasi keng masalalar uchun qabul qilingan bo'lib, 1967-yil 8-iyunda kuchga kirgan. 2011-yil aprel holatiga ko'ra 173 ta davlat bu konvensiyaga qo'shilgandi. Yana shuni aytishimiz mumkinki, Konsullik munosabatlari to'g'risidagi Vena konvensiyasi ko'p tomonlama xalqaro shartnoma hisoblanib, konsullik huquqlari va majburiyatlarini belgilaydi hamda konsullik munosabatlarining poydevorini tashkil etadi. Bu shartnoma davlatlarga chet elda bo'lgan fuqarolariga yordam ko'rsatish imkonini beradi, shu bilan birga boshqa davlatlarning suverenitetiga hurmat bilan qaraydi.⁶ Yuqorida aytganimdek, konsullik munosabatlari to'g'risidagi konvensiya juda ahamiyatli va qabul qilinganligi xalqaro huquqda ko'pgina afvzalliklarni vujudga keltirgan. Ushbu konvensiyaning

³ <https://opil.ouplaw.com/display/10.1093/law:epil/9780199231690/law-9780199231690-e1003>

⁴ Xalqaro ommaviy huquq [Matn]: darslik / A.X. Saidov va boshqalar. - T.: TDYU nashriyoti, 2023. - 375 b.

⁵ <https://opil.ouplaw.com/display/10.1093/law:epil/9780199231690/law-9780199231690-e1003>

⁶ <https://www.manoramayearbook.in/current-affairs/india/2024/01/06/vienna-convention-on-consular-relations.html>

mazmunidan ham ko'rinib turganidek, u davlatlar o'rtasidagi eng ahamiyatli masalalarni tartibga solgan.

Consular notification

Konsullik munosabatlar to'g'risidagi Vena konvensiyasining 36-moddasi juda ham muhim hisoblanadi. Chunki, ushbu konvensiyaning 36-moddasiga binoan u ya'ni konvensiya, uni qabul qiluvchi davlatga vazifa yuklaydi. Agar mazkur davlat hududida boshqa bir davlat fuqarosi ushlangan yoki hibsga olingan bo'lsa, unga va uning davlatiga xabar beriladi (consular notification) va konsullik vakilining kirish huquqini ta'minlash majburiyatini belgilaydi.⁷ Consular notification atamasi konsullikka xabar berish ma'nosini anglatadi. Yuqorida aytganimizdek agar ushbu konvensiyani qabul qilgan biror bir davlat hududida boshqa davlat fuqarosi hibsga olinsa yoki shu kabi holatlar yuz bersa, uning davlatiga xabar beriladi, aynan shu consular notification hisoblanadi. Konvensiyaning 36-moddasida quyidagicha asosiy vazifalarni belgilangan: agar qabul qiluvchi davlat hududida boshqa davlat fuqarosi hibsga olingan, qamoqqa olingan yoki sudlash jarayoni boshlanganda, vakolatli organlar ushbu shaxsga uning konsul bilan aloqada bo'lish va konsulga xabar berishni so'rash huquqi borligini o'z vaqtida ma'lum qilishlari lozim; shuningdek, agar shaxs xohlasa, ya'ni uning istagiga binoan qabul qiluvchi davlat konsulni xabardor qilishi kerak.⁸ Aynan ushbu norma konsullik yoki uning vakili kirish huquqini ham kafolatlaydi, ya'ni konsullik vakili mahbus oldiga tashrif buyurishi va unga yordam ko'rsatishi imkoniyatiga ega bo'lishi mumkin. Linda A. Malonening "The Right to Consular Notification: The Cultural Bridge to a Foreign Legal System" deb nomlangan maqolasi mavjud. Ushbu maqolada aynan Konsullik munosabatlari to'g'risidagi Vena konvensiyasining 36-moddasi chuqur tahlil etiladi. Unga ko'ra ushbu norma har bir davlatning o'z fuqarosining chet elda ya'ni chet davlatda huquqiy himoyasini ta'minlash vositasi ya'ni quroli hisoblanadi. Chunki hibsga olingan shaxs ko'pincha mahalliy tilni, qonunlarni yoki protsessual qoidalarni, aynan usha davlat bilan bog'liq ko'p narsani bilmaydi. Maqolada ushbu huquqning ya'ni konsullikka xabar berish huquqi berilishining maqsadi sifatida chet elda hibsga olingan shaxs va qabul qiluvchi davlatning adliya tizimi o'rtasida madaniy va huquqiy ko'prik vazifasini bajarishi taqdim etilgan. Bu ko'prik mahbusga o'z ona tilida so'zlashi va ularni tushunish, himoyasini tashkil etish va o'z mamlakati orqali yordam olish, o'z huquqlarini himoya qilish imkonini yaratadi.⁹

Konsullik munosabatlari to'g'risidagi konvensiyaning konsullikka xabar berishning ichki sud amaliyotiga integratsiyasi deganda konsullikka xabar berish normasini ya'ni 36-moddada berilgan holatlarni davlatlar o'z ichki sud tizimiga ya'ni

⁷ https://legal.un.org/ilc/texts/instruments/english/conventions/9_2_1963.pdf

⁸ <https://lex.uz/docs/2750193>

⁹ <https://law.georgetown.edu>

milliy qonunchilikda va sud ishlarida qanday qo'llayotganligi tushunilishi mumkin. Ya'ni xalqaro huquqda shunday huquq, qaysidur ma'noda imkoniyat bor, biroq ichki sud tizimi ham bu huquqni ta'minlamoqdami degan savollar vujudga kaldi.

IV.Muhokama

Shaxsiy huquq yoki davlatlararo majburiyat

Konsullik munosabatlari to'g'risidagi Vena konvensiyasining 36-moddasida uni qabul qilgan davlatlarga bir qancha majburiyatlar yuklanganligi bilan bog'liq masalani yuqorida tahlil qildik. Konvensiyaning 36-moddasi tashqi ko'rinishda vakolatli organlarga davlatlararo majburiyat yuklaydi. Bu aynan nima degan ma'noni bildiradi? Ko'pgina holatlarda ushbu jumlar noto'g'ri talqin etilgan. Ushbu holatni tahlil qilish uchun ushbu konvensiyani qabul qilgan davlatlardan birini misol keltirsak, O'zbekiston Respublikasi Konsullik munosabatlari to'g'risidagi Vena konvensiyasini 1992-yil 1-aprelda qabul qilgan. Shunday ekan O'zbekiston Respublikasida ham ushbu konvensiyaning normalariga amal qilinishi kerak. Endi qabul qiluvchi davlat "agar shaxs xohlagan bo'lsa" uning konsuligiga xabar berishi lozim va hibsga olingan shaxsga konsul bilan bog'lanish huquqi borligini o'z vaqtida ma'lum qilishi kerak. Konvensiyada norma shunday keltirilgan, ya'ni agar shaxs istasa. Shuning uchun ba'zi milliy sudlar 36-moddani "faqat davlatlar o'rtasidagi majburiyat" deb talqin qilib, shaxslarning ushbu modda asosida to'g'ridan-to'g'ri sudlarga da'vo qila olmaydi deb uylashgan. Bu yondashuv 1960-1990-yillarda juda ham keng tarqalgan edi. Ammo 1999-2004-yillar oralig'ida Xalqaro Sud (*International Court of Justice*) tomonidan qabul qilingan ikki asosiy ish: *LaGrand (Germany v. United States, 2001)* va *Avena (Mexico v. United States, 2004)* — Konsullik munosabatlari to'g'risidagi konvensiyaning 36-moddasi mazmunini yangi usulda talqin qilingan edi va bu talqin xalqaro hamjamiyatda katta ahamiyat kasb etdi. Xalqaro sud ushbu ishlarida 36-modda bilan yaratilgan huquqning shaxs uchun ham ekanligini, ya'ni «individual enforceable right» xususiyatiga ega ekanini e'lon qildi, va bunda buzilishlar mahalliy sud jarayonlariga ta'sir ko'rsatishi mumkinligini belgiladi.¹⁰ LaGrand ishida 1982-yilda 2 ta nemis fuqarosi ushlangan, ularni Arizona shtatida bank o'g'riligi bilan bog'liq qotillik sodir etilganligi sababli ushlangan ekan, ular sudlangan va o'lim jazosiga hukm qilingan. Mahalliy politsiya tomonidan ular nemis fuqarolari ekanligi aniqlangan, ammo Konsullik munosabatlari to'g'risidagi Vena konvensiyasining 36-moddasi talablariga binoan konsullikka xabar berilganmi yokida berilmaganligi masalalariga oid muammolar yuzaga keladi. Germaniya ushbu holat bo'yicha Xalqaro sudga shikoyat qilgan. Xalqaro sudqabul qilgan qarorga ko'ra, Konsullik munosabatlari to'g'risidagi Vena konvensiyasining 36-moddasi shaxslarga bevosita huquq berishini tan oladi va AQSHni bu majburiyatlarni buzgan deb topadi. Xalqaro

¹⁰ <https://www.icj-cij.org/case/128>

sudning yakuniy xulosasi shunday edi: Konsullik munosabatlari to'g'risidagi Vena konvensiyasining 36-moddasi buzilganda, bu holat mahalliy sud jarayonlariga ta'sir qilishi mumkin va davlatlar hukumatlari buzilishlarni to'g'irlash uchun mos choralarni ko'rishi zarur.¹¹ Avena ishini Meksika AQSHga qarshi olib borgan. Unda 50 dan ortiq meksikalik mahbuslarning konsullik munosabatlari to'g'risidagi Vena konvensiyasining 36-moddasidagi huquqlari buzilganiga doir ish ko'rib chiqilgan. Xalqaro sud hukmida AQShni VCCR 36-moddasi majburiyatlari buzilgan deb topilgan va AQShga talab quyilgan. Talabda AQSH ishni o'z ichki qonunchiligi asosida qayta ko'rib chiqishi belgilangan. Xalqaro sud Avena qarorida ham qayd etganidek, 36-moddaning bevosita shaxsiy xarakteri mavjud va mamlakatlar bu majburiyatni hurmat qilishi zarur. Biroq xalqaro sud qarorlari milliy sudlar ustidan to'g'ridan-to'g'ri hukm chiqaruvchi emas ya'ni, Xalqaro sudning qarori to'g'ridan-to'g'ri AQSH sudining qarorlarini bekor qilish imkonini bermaydi.¹²

AQSH misollari – asosiy qarorlar

Endi davlatlar amaliyotidan misollar keltirsak, misollar asosan AQSH bilan bog'liq, chunki VCCR 36-moddasi bo'yicha eng ko'p xalqaro-milliy to'qnashuvlar va muammolar aynan AQSHda yuz beradi.

Breard v. Greene (1998)

Paragvaylik fuqaro Breard, Virjiniya shtatida o'lim jazosiga hukm qilinadi. U VCCR 36-moddasiga asoslanib, konsullikka xabar berilmaganini da'vo qiladi. Oliy sud muammoni ko'rib chiqadi va asosan Breardning da'vosini asosli emas deb topadi, sud 36-moddani bevosita shaxsiy huquq deb to'liq e'lon qilmaydi, ammo sud ba'zi sharhlarida VCCRning muayyan jihatlarini inkor etmadi. Breard ishida Oliy sud davlatning suvereniteti va protsessual qoidalarining muhimligini ham alohida takidlaydi.

Medellín v. Texas (2008)

Medellín ishi eng muhim va asosiy oqibatlariga olib keldi. Xalqaro sud Avena qarori asosida AQShni meksikalik mahbuslar uchun "review and reconsideration" o'tkazishga taklif etadi. Ammo, 2008-yilda AQSh Oliy sudi «Medellín v. Texas» ishida shunday xulosaga keladi: Xalqaro sud qarori avtomatik ravishda AQSh federal va shtat sudlarida majburiy huquqi (self-executing) bo'lib ishlamaydi — agar Kongress yoki prezident tomonidan maxsus ijro mexanizmi qo'yilmagan bo'lsa, Xalqaro sud hukmlari mahalliy sudlarda ijro etilmaydi. Natijada Medellín va boshqa Avena vakillari ishi qayta ko'rilmaydi va bir necha ishlar ijobiy hal qilinmadi. Bu qaror

¹¹ <https://opil.ouplaw.com/display/10.1093/law:epil/9780199231690/law-9780199231690-e155?d=%2F10.1093%2Fflaw%3Aepil%2F9780199231690%2Fflaw-9780199231690-e155&p=emailAGCCynMo6F18s&print>

¹² <https://opil.ouplaw.com/display/10.1093/law:epil/9780199231690/law-9780199231690-e99?p=emailAI7FeULTSKOVE&d=/10.1093/law:epil/9780199231690/law-9780199231690-e99&print>

AQShning xalqaro majburiyatlarni ichki huquqqa aylantirishga qaratilgan ehtiyotkorligini yanada kuchaytirdi.¹³

Ko'pgina Yevropa davlatlarida, shu jumladan Germaniyada, 36-modda buzilishi hatto milliy sudlarda ham jiddiy hisoblanadi. Masalan, Germaniya konstitutsiyaviy sudi ba'zi holatlarda konsullikka xabarnoma berilmasligini sud protsessining adolatliligi prinsipiga ta'sir qiluvchi omil sifatida ko'rib chiqqan. Shu bilan birga, yondashuv davlatdan davlatga farq qiladi: ba'zi yurisdiksiyalarda 36-modda buzilishiga yo'l quyilmasligi kafolatlangan, boshqalarida esa asosiy yondashuv siyosiy yoki diplomatik usullar orqali amalga oshiriladi.

V.Xulosa

Konsullik munosabatlari to'g'risidagi konvensiyaning konsullikka xabar berishning ichki sud amaliyotiga integratsiyasi bilan bog'liq bir qancha amaliy misollar va holatlarni ko'rib chiqdik. Ushbu normalarga nisbatan har xil qarashlar va yondashuvlar borligiga guvoh bo'ldik. Darhaqiqat, konvensiyaning 36-moddasi davlatlar o'rtasidagi diplomatik munosabatlarni tartibga soladi, shuningdek, unga har bir chet el fuqarosining inson huquqlarini himoya qiluvchi universal norma sifatida qaralishi lozim. Fuqarolarning chet elga chiqishi ularning shaxsiy va siyosiy huquqlarini cheklab quyilishiga yoki huquqlari buzilishi olib kelmasligi kerak. Xalqaro huquqda inson huquqlari va uning qadri eng oliy darajalarga chiqarilgan bir vaqtda insonning chet elda bo'lgan vaqtda huquqlari himoya qilinmasligi bu to'g'ri bo'lmagan holat hisoblanadi. Ushbu moddaning borligi barcha uchun qulayliklar keltirib chiqaradi, shunday ekan uning ichki sud amaliyotida integratsiyalanishi ham ko'pgina ijobiy xususiyatlarga ega, buni yuqorida misollar bilan tahlil qildik. Konsullikka xabar berish huquqi chet elda hibsga olingan shaxsga o'zining milliy konsulidan yordam olish, adolatli sudlovni ta'minlash va advokat bilan aloqa o'rnatish imkonini beradi. Shu sababli, bu norma xalqaro adolat tamoyillarining amaliy ifodasidir, uning buzilishi nafaqat diplomatik masala va holatlar, balki adolatli sudlov huquqining buzilishi sifatida baholanishi kerak emasmi?!

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Xalqaro ommaviy huquq [Matn]: darslik / A.X. Saidov va boshqalar. - T.: TDYU nashriyoti, 2023. - 374 b.
2. Xalqaro ommaviy huquq: Oliy o'quv yurtlari uchun darslik / Odilqoriyev X.T., Ochilov B.E.; O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi, Toshkent davlat yuridik instituti. – Toshkent: Adolat, 2007. – 487 b.
3. Vienna Convention on Consular Relations. – Vienna, 24 April 1963.
4. LaGrand Case (Germany v. United States of America). Judgment of 27 June 2001. International Court of Justice.

¹³ https://en.wikipedia.org/wiki/Medell%C3%ADn_v._Texas

5. Bekker, P. H. F. Consular Notification and the Death Penalty // American Society of International Law Insights. – 2003.
6. Consular Notification Practice from the Perspective of International Human Rights Protection. – 2024.
7. <https://www.manoramayearbook.in/current-affairs/india/2024/01/06/vienna-convention-on-consular-relations.html>
8. <https://law.georgetown.edu>
9. <https://www.icj-cij.org/case/128>
10. https://en.wikipedia.org/wiki/Medell%C3%ADn_v._Texas